Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
<i>Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
<i>Yusupova Nozima Mahamadaliyevna</i>	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
<i>Каримов Жамшид</i>	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
<i>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</i>	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
<i>Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
<i>Axmatov M. M.</i>	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
<i>Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
<i>Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna</i>	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
<i>Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li</i>	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
<i>Sultanova Shahnoza Mirxalilovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
<i>Raxmonova E'zoza Sherzod qizi</i>	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
<i>Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdorovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	



Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
Tursunonova Nozima Ilxomovna	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
Axmedova Gavhar Faxriddinovna	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
Abduxamidova Muyassar	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
Dehqonova Mahmuda Ortiqovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
G'iyosova Dilovar Orif qizi	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
Imomov Sirojiddin Ilhomovich	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
Kadirova Gulnora Xasanovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
M. M. Qosimova	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
Maxmudjonov I. I.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
Muminova Dilfuza Bahromjanovna	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
Safarova Shahlo Shuhratali qizi	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
Shermumadova Diyorakhon Nurmuhamad kizi	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	



MILLIY HARA-KATLI O'YINLARNING TALABA YOSHLARDA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Raxmatova Nodira

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi pedagogik va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy o'yinlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga integratsiya qilish orqali harakat tezligi, muvofiqlashtirish qobiliyati hamda reaksiya tezligini rivojlantirish imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda jismoniy faollikni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan. Maqola materiallari oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: milliy harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, chaqqonlik, talaba yoshlar, jismoniy sifatlar.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and practical significance of national active games in developing agility as a physical quality among university students. The study highlights the potential of integrating national games into physical education classes to improve movement speed, coordination abilities, and reaction time. In addition, the role of national active games in increasing students' physical activity, promoting a healthy lifestyle, and enhancing motivation for physical training is substantiated. The findings of the article can be applied to improve the physical education process in higher education institutions.

Key words: national active games, physical education, agility, university students, physical qualities.

Аннотация: В статье анализируется педагогическое и практическое значение национальных подвижных игр в формировании физического качества ловкости у студентов. Рассматриваются возможности развития быстроты движений, координационных способностей и скорости реакции посредством интеграции национальных игр в занятия по физическому воспитанию. Обоснована роль национальных подвижных игр в повышении двигательной активности студентов, формировании здорового образа жизни, а также в усилении мотивации к занятиям физической культурой. Материалы статьи могут быть использованы для совершенствования процесса физического воспитания в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: национальные подвижные игры, физическое воспитание, ловкость, студенты, физические качества.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, talaba yoshlarda muhim jismoniy sifatlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy hayot sur'atlarining tezlashuvi, o'quv yuklamalarining ortishi hamda texnologik omillarning ustunligi yoshlarning harakat faolligi pasayishiga olib kelmoqda. Bu holat, o'z navbatida, talaba yoshlarda chaqqonlik, tezkorlik va harakatlarni muvofiqlashtirish kabi jismoniy sifatlarning yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Chaqqonlik jismoniy sifati shaxsning turli harakat vaziyatlariga tez va aniq moslasha olish qobiliyatini ifodalaydi hamda jismoniy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, talabalik davrida chaqqonlikni rivojlantirish nafaqat sport faoliyatida, balki kundalik hayotda samarali harakatlanish, kasbiy faoliyatga moslashuv hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy harakatli o'yinlardan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida samarali foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Milliy o'yinlar asrlar davomida xalqning hayot tarzi, jismoniy tayyorgarligi va ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, ular yuqori darajadagi harakat faolligi, tezkor qaror qabul qilish va muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab etadi. Bu esa talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.



Shuningdek, milliy harakatli o'yinlarning jismoniy tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mashg'ulotlarning qiziqarilishini oshiradi, talabalarda ijobiy emotsional holatni yuzaga keltiradi hamda ularning jismoniy mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ushbu o'yinlar orqali milliy qadriyatlarga hurmat, jamoada harakat qilish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati ham yuzaga keladi. Mazkur maqolaning maqsadi milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularni oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga joriy etishning samarali yo'llarini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida harakatli o'yinlar nafaqat "mashq", balki ta'lim-tarbiyaning vositasi, shakli va metodi sifatida qaraladi. Ular mashg'ulotlarni qiziqarli tashkil etish, yuklamani tabiiy yo'l bilan boshqarish, jamoaviy harakat va qoidalarga bo'ysunish orqali tarbiyaviy maqsadlarni ham hal etishi bilan ajralib turadi. Harakatli o'yinlarning tizimdagi o'rni, ularni tanlash mezonlari va o'tkazish metodikasi bo'yicha yondashuvlar rus metodik maktabida ham batafsil yoritilgan bo'lib, o'yinlar orqali tezkorlik, epchillik (chaqqonlik), koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish mumkinligi ko'rsatiladi¹.

Milliy harakatli o'yinlar masalasida O'zbekiston sharoitiga mos yondashuvlar ko'proq o'quv qo'llanmalar va amaliy-metodik manbalarda jamlangan. Xususan, K. Rahimqulovning "Milliy harakatli o'yinlar" qo'llanmasida o'yinlarning kelib chiqishi, mazmuni, o'tkazish uslublari hamda tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan bo'lib, ularning jismoniy sifatlarni, jumladan, tezkor harakatlanish va epchillik komponentlarini qo'llab-quvvatlashi ta'kidlanadi². Shu yo'nalishda F. Xo'jayev va hammualiflar tomonidan tayyorlangan "Milliy harakatli o'yinlar va estafetalar" qo'llanmasi ham o'yinlarni tizimlashtirish, dars va mashg'ulotlarga moslashtirish hamda estafeta shakllari orqali harakat tezligi va koordinatsiyani faollashtirish imkoniyatini berishi bilan amaliy ahamiyatga ega³.

Metodik maqolalar va amaliy tavsiyalarda milliy hamda harakatli o'yinlarni darsning, ayniqsa, tayyorlov va yakuniy qismlarida qo'llash, o'quvchi-talabalar organizmini mashg'ulotga "kirgizib yuborish" va keyingi harakat topshiriqlariga moslab olish samarali ekani qayd etiladi. Bunday yondashuv o'yinlarni "ko'ngilochar tanaffus" darajasida qoldirmasdan, balki mashg'ulot maqsadiga bo'ysundirish, ya'ni chaqqonlikni rivojlantiruvchi o'yinlarni tanlash va ularni to'g'ri dozalashtirish zarurligini ko'rsatadi⁴.

Chaqqonlik masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda u, odatda, koordinatsiya, tezkor qaror qabul qilish, reaksiya tezligi va harakat yo'nalishini tez o'zgartirish kabi tarkibiy komponentlarning uyg'unligi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli chaqqonlikni rivojlantirishda faqat tez yugurishga asoslangan mashqlar emas, balki vaziyat tez o'zgaradigan, signalga tezkor javob qaytariladigan hamda raqib yoki hamkor harakati hisobga olinadigan mashqlar muhim hisoblanadi. Bu holat zamonaviy tadqiqotlarda ham tasdiqlanib, reaksiya va chaqqonlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq ekani, reaksiya tezligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar chaqqonlik mashqlarining samaradorligini oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan⁵.

Shuningdek, talaba yoshlar bilan ishlash kontekstida jismoniy faollikni muntazam saqlash masalasi global miqyosda ham dolzarb hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tavsiyalarida kattalar uchun haftasiga kamida 150 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi yoki 75 daqiqa yuqori intensivlikdagi jismoniy faollik tavsiya etiladi⁶. Bu holat talabalarining o'quv yuklamasi fonida kamharakat bo'lib qolmasligi uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini mazmunan boyitish, motivatsiyani oshiradigan va bir vaqtning o'zida jismoniy sifatlarni rivojlantiradigan vositalarni faol qo'llash zarurligini yanada kuchaytiradi.

O'zbek milliy harakatli o'yinlarining jismoniy sifatlarni rivojiga ta'siri bo'yicha ayrim zamonaviy tadqiqotlarda o'yinlar turkumlarga ajratilib, ularni zamonaviy ta'lim sharoitiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan⁷. Ushbu manbalar milliy o'yinlarning pedagogik resursi katta ekanini ko'rsatsa-da, oliy ta'lim muassasalarida aynan chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni tanlash, ularni dars strukturasiga aniq joylashtirish hamda natijalarni baholash mezonlarini tizimlashtirish masalasi hali ham amaliy-metodik jihatdan yanada aniqlashtirishni talab qiladi.

- 1 Lutkova N.V., Minina L.N. Podvizhnye igry v razlichnykh zvenyakh sistemy fizicheskogo vospitaniya: uchebno-metodicheskoe posobie. Sankt-Peterburg: NGU im. P.F. Lesgafta, 2010. 114 s.
- 2 Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar. Toshkent: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. 73 b. ISBN 978-9943-362-52-9.
- 3 Xo'jayev F., Abdurusulov R., Xo'jayeva M. Milliy harakatli o'yinlar va estafetalar: o'quv qo'llanma. Toshkent: "Umid Design", 2021. 176 b. ISBN 978-9943-7292-2-3.
- 4 Eshbayev Himmat Abloqul o'g'li. Jismoniy tarbiya darslarida milliy va harakatli o'yinlardan foydalanishning yo'llari. JDPU 2023.
- 5 Mancini N., Moscatelli F., Di Padova M., et al. The relationship between reaction time and agility performance in young athletes: A study using perception-action technological devices. Journal of Physical Education and Sport (JPES), 2024, Vol. 24(12), Art. 320, pp. 2205–2215. DOI: 10.7752/jpes.2024.12320.
- 6 <https://www.who.int/initiatives/behealthy/physical-activity>
- 7 Madaminov R.M., Hamidov R.U. Vliyanie uzbekskikh natsionalnykh podvizhnykh igr na razvitie osnovnykh fizicheskikh kachestv. "PEDAGOGS" international research journal, 2025, Volume-75, Issue-1, pp. 156–165.



TADQIQOT METOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqot oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida olib borildi hamda nazariy va amaliy metodlar uyg'unligiga asoslandi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, testlash, taqqoslash va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 18–22 yoshdagi talabalar tanlab olinib, ular jismoniy tayyorgarlik darajasi jihatidan o'xshash bo'lgan nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mazmuniga milliy harakatli o'yinlar tizimli ravishda kiritildi. Ushbu o'yinlar chaqqonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularda harakat yo'nalishini tez o'zgartirish, signalga javob berish hamda raqib yoki hamkor harakatiga moslashish elementlari ustunlik qildi. Nazorat guruhida esa mashg'ulotlar amaldagi an'anaviy dastur asosida olib borildi.

Milliy harakatli o'yinlar mashg'ulotlarning asosan asosiy qismida qo'llanildi. O'yinlarni tanlashda ularning mazmuni, davomiyligi va intensivligi talabalarning jismoniy imkoniyatlariga moslashtirildi. Yuklama hajmi va murakkabligi bosqichma-bosqich oshirilib, o'yin qoidalariga kichik o'zgartirishlar kiritish orqali chaqqonlikka yo'naltirilganlik kuchaytirildi. Talabalarning chaqqonlik darajasini aniqlash uchun tajriba boshida va yakunida maxsus testlar qo'llanildi. Jumladan, harakat yo'nalishini tez o'zgartirishga asoslangan yugurish mashqlari, signal bo'yicha reaksiya tezligini aniqlovchi testlar hamda koordinatsion harakatlar bajarilishi baholandi. Olingan natijalar miqdoriy ko'rsatkichlar asosida qayd etildi. Tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro taqqoslanib, milliy harakatli o'yinlardan foydalanish chaqqonlik jismoniy sifatining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi, bu esa olingan ma'lumotlarning ishonchligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba natijalari milliy harakatli o'yinlardan tizimli foydalanish talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlarining chaqqonlik ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada bo'lib, bu tajriba sharoitlarining tengligini ta'minladi. Tajriba yakunida o'tkazilgan nazorat testlari natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida harakat yo'nalishini tez o'zgartirishga asoslangan yugurish mashqlari, reaksiya tezligini aniqlovchi testlar hamda koordinatsion topshiriqlarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, signal bo'yicha harakat boshlash vaqti qisqargan, harakatlar aniqligi va muvofiqlashtirilganligi oshgan. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar tajriba guruhiga nisbatan past bo'ldi.

Milliy harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan yuqori qiziqish bilan bajarildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida mashg'ulotlarga qatnashish faolligi oshgan, talabalarning o'z tashabbusi bilan harakat qilishga bo'lgan intilishi kuchaygan. Bu holat jismoniy yuklamaning majburiy emas, balki tabiiy va emotsional jihatdan qulay shaklda amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhida chaqqonlik ko'rsatkichlarining o'sishi ishonchli darajada bo'lib, bu holat milliy harakatli o'yinlarning maqsadli qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq ekanini aniqlandi. Ayniqsa, harakat vaziyatlari tez-tez o'zgaradigan va raqobat elementlari mavjud bo'lgan o'yinlar chaqqonlik jismoniy sifatining rivojlanishiga samaraliroq ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari milliy harakatli o'yinlar talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda ularni oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi.

Olingan tadqiqot natijalari milliy harakatli o'yinlarning chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida ilgari surilgan nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ilgari chop etilgan ilmiy manbalarda chaqqonlikni rivojlantirish uchun o'zgaruvchan, tezkor va koordinatsiyaga boy harakat faoliyati zarurligi ta'kidlangan bo'lsa, ushbu tadqiqot natijalari milliy harakatli o'yinlar aynan shu talablarga to'liq javob berishini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, milliy harakatli o'yinlar nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, balki talabalarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin jarayonidagi raqobat, jamoaviylik va qoidalariga rioya qilish talabalarda mas'uliyat, tezkor fikrlash hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa chaqqonlik jismoniy sifatining yanada barqaror shakllanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarga mos keladi. Xususan, harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar an'anaviy mashqlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi haqidagi xulosalar bilan uyg'unlik kuzatildi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot oliy ta'lim sharoitida aynan milliy harakatli o'yinlarning qo'llanilishiga alohida urg'u berilgani bilan ajralib turadi.

Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, pedagogik tajribaning qisqa muddatda o'tkazilgani hamda ishtirokchilar sonining cheklanganligi olingan natijalarni umimlashtirishda ehtiyotkorlikni talab



etadi. Kelgusida milliy harakatli o'yinlarning boshqa jismoniy sifatlar – tezkorlik, chidamlilik va kuch bilan o'zaro bog'liqligini kompleks tarzda o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muhokama natijalari milliy harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tizimli va maqsadli ravishda joriy etish talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini samarali shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini mazmunan boyitish hamda milliy qadriyatlarga tayangan holda takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi muhim pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida milliy harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari talabalarning harakat faolligini oshirish, reaksiya tezligi, harakatlarni muvofiqlashtirish hamda harakat yo'nalishini tez o'zgartirish qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy harakatli o'yinlardan tizimli va maqsadli foydalanilgan mashg'ulotlar an'anaviy jismoniy mashqlarga nisbatan chaqqonlik jismoniy sifatini rivojlantirishda yuqoriroq natijalarni ta'minlaydi. Buning asosiy sababi milliy o'yinlar mazmunida o'zgaruvchan vaziyatlar, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy harakat elementlarining ustunligi bilan izohlanadi. Ushbu xususiyatlar talaba yoshlarda nafaqat jismoniy, balki psixofiziologik moslashuvchanlikni ham shakllantiradi.

Shuningdek, milliy harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya jarayonining emotsional jihatdan jozibadorligini oshirib, talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishi aniqlanadi. Bu esa jismoniy yuklamaning tabiiy va majburiy bo'lmagan shaklda amalga oshirilishiga, mashg'ulotlarda faol ishtirok etish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Natijada chaqqonlik jismoniy sifatining barqaror va uzluksiz rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Tadqiqot yakunlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy harakatli o'yinlarni oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tizimli ravishda joriy etish metodik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, chaqqonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarni mashg'ulotlarning asosiy qismida qo'llash, o'yin qoidalarini talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish hamda yuklamani bosqichma-bosqich oshirib borish tavsiya etiladi.

Kelgusida milliy harakatli o'yinlarning boshqa jismoniy sifatlar bilan o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ularning uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga qaratilgan keng ko'lami tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Olingan natijalar oliy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirish, sog'lom va harakatga tayyor yoshlarni tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar : o'quv qo'llanma. – Toshkent : Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 73 b. – ISBN 978-9943-362-52-9.
2. Xo'jayev F., Abdurusulov R., Xo'jayeva M. Milliy harakatli o'yinlar va estafetalar : o'quv qo'llanma. – Toshkent : Umid Design, 2021. – 176 b. – ISBN 978-9943-7292-2-3.
3. Eshbayev Himmat Abloqul o'g'li. Jismoniy tarbiya darslarida milliy va harakatli o'yinlardan foydalanishning yo'llari. – Jizzax : Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti rasmiy veb-sayti, 2023. – URL: <https://jdpu.uz/jismoniy-tarbiya-darslarida-milliy-va-harakatli-oyinlardan-foydalanishning-yollari/>.
4. Lutkova N. V., Minina L. N. Podvizhnye igry v razlichnykh zvenyakh sistemy fizicheskogo vospitaniya : uchebno-metodicheskoe posobie. – Sankt-Peterburg : NGU im. P. F. Lesgafta, 2010. – 114 s.
5. World Health Organization. Physical activity : recommendations by age group. – Geneva : WHO, 2020. – URL: <https://www.who.int/initiatives/behealthy/physical-activity>.
6. Mancini N., Moscatelli F., Di Padova M., et al. The relationship between reaction time and agility performance in young athletes: A study using perception–action technological devices // Journal of Physical Education and Sport. – 2024. – Vol. 24, No. 12. – Art. 320. – P. 2205–2215. – DOI: 10.7752/jpes.2024.12320.
7. Madaminov R. M., Hamidov R. U. Vliyanie uzbekskikh natsionalnykh podvizhnykh igr na razvitie osnovnykh fizicheskikh kachestv // PEDAGOGS International Research Journal. – 2025. – Vol. 75, No. 1. – P. 156–165.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.